

# QABUL – UCHINCHI BOSQICH

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETINING (TTPU)  
2022/2023 O'QUV YILI BAKALAVRIAT BOSQICHIGA QABUL – UCHINCHI  
BOSQICH QOIDALARI VA HUJJAT TOPSHIRISH MUDDATI

## [QOIDALAR](#)

### Imtihon sanasi

- Kirish imtihonining uchinchi bosqichi **7 Sentyabrda mahalliy vaqt bilan soat 10:00 da bo'lib o'tadi** (ro'yxatdan o'tishning oxirgi muddati – 5 Sentyabr).
- **MUHIM ESLATMA:** Uchinchi bosqich kirish imtihonidan o'tgan abituriyentlar Tayyorlov bosqichni o'tkazib yubora olmaydilar.

*Kirish imtihonlari Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Kichik Xalka Yuli, 17, 100095, (Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, sobiq "Nukus" kinoteatri, "Asia.uz" supermarketi).*

### Onlayn ro'yxatdan o'tish

## [RO'YXATDAN O'TISH](#)

ONLAYN ARIZANI QANDAY TO'LDIRISHNI BILISH UCHUN, ILTIMOS  
QUYIDAGI VIDEOLARNI KO'RING.

QANDAY RO'YXATDAN O'TISH HAQIDA VIDEO

ITALIAN YO'NALISHDAGI ARIZANI QANDAY TO'LDIRISH HAQIDA

**Sentyabr oyida bo'lib o'tadigan ikkinchi imtihonga ro'yxatdan o'tish ochiq.**

ONLAYN ARIZANI MUVAFFAQIYATLI YAKUNLASH UCHUN – BARCHA  
MAYDONLAR TO'G'RI TO'LDIRILISHI ZARUR!

Qabul jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun

abituriyentlar LMS platformasiga ro'yxatdan o'tgandan so'ng, o'zlarining yangi fotosuratlarini yuklashlari va pasport (yoki ID Card)ning pdf nusxasini ilova qilishlari kerak.

Bundan tashqari, talabalar ma'lumotlar bazasini yuritish bilan bog'liq xarajatlar tufayli har bir abituriyent Markaziy bank kursi bo'yicha 5 yevro (65 000 so'm) kirish to'lovini to'lashi kerak. To'lov kvitansiyasi ham yuqoridagi ariza shakliga yuklanishi kerak. **Kirish to'lovini to'lamagan abituriyent imtihonlarga kiritilmaydi.**

**Onlayn arizani muvaffaqiyatli to'ldirgandan so'ng, abituriyentlar tasdiqlovchi elektron pochta xabarlarini oladilar.**

**Onlayn shaklni o'z vaqtida to'ldirmagan abituriyentlar hujjatlari qabul qilinmaydi kirish imtihonlariga qo'yilmaydi!**

### **Kirish imtihoni**

Kirish imtihonlari test shaklida bo'lib, qiyinlik darajasi O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturi darajasida bo'ladi.

Test quyidagilardan iborat:

- **Matematika:** 18 ta savol (vaqt: 40 daqiqa)
- **O'qib tushunish:** 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa)
- **Mantiq:** 6 ta savol (vaqt: 12 daqiqa)
- **Fizika:** 12 ta savol (vaqt: 26 daqiqa)

To'liq imtihon **42 savoldan** iborat bo'lib, **90 daqiqa** davom etadi. Har bir savolda 5 ta variant mavjud, ammo ulardan faqat bittasi to'g'ri.

Tanlangan javoblar quyidagicha baholanadi:

- 1 ball – agar to'g'ri javob tanlansa (1 ball qo'shiladi)
- -0.25 ball – noto'g'ri javob tanlansa (to'plangan balldan 0.25 ball ayirib tashlanadi)

- 0 ball – javob tanlanmagan bo'lsa (ball yo'qotmaysiz)

**Barcha savollar ingliz tilida bo'ladi!**

**Biznes boshqaruv – menejment yo'nalishi bo'yicha qoidalar, tartiblar va sanalar haqida ma'lumot olish uchun quyidagi havolaga o'ting.**

[HAVOLAGA O'TING](#)

## **Imtihon natijalari**

Abiturientlar to'plagan ballarini imtihon yakunida bilib oladilar. Abiturientlarning to'liq ro'yxati to'plagan ballarning (imtihon natijalarining) foiz ko'rsatkichidagi ketma-ketligi, imtihondan keyin bir hafta ichida e'lon qilinadi.

Imtihon natijalari e'lon qilingandan so'ng o'qishga tavsiya qilingan abiturientlar quyidagi hujjatlarni Qabul komissiyasiga topshirishlari shart:

- Ariza: ariza belgilangan tartibda to'ldirilishi va Qabul Komissiyasi mas'ul xodimi huzurida imzolanishi kerak;
- Pasport (asli va nusxa) – hujjatning asli qaytarib beriladi;
- 3x4 o'lchamdagi 4 ta rangli fotosurat;
- 1 ta papka (skoro shivatel), o'rta o'lchamdagi konvert;
- O'rta va o'rta maxsus ta'lim haqidagi hujjat – attestat, diplom va ilovasi;
- IELTS sertifikatini kamida 5.5 ball (boshqa turdagi ingliz tili sertifikatini topshirish bo'yicha ma'lumotlar bilan 1.4 bo'limda tanishib chiqing).

Hujjatlar Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti Qabul Komissiyasi tomonidan Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Toshkent 100095 manzili bo'yicha qabul qilinadi.

## **Kirish imtihonidan ozod etilish shartlari**

Ushbu bo'lim quyida keltirilgan sertifikatlarga ega bo'lgan abituriyentlar uchun mo'ljallangan. Yuqori ball to'plagan talabalar 1-bosqich (tayyorgarlik yili)ni o'tkazib yuborib, 2-bosqichdan o'qishni boshlashlari mumkin. Bu haqidagi yakuniy qarorni Qabul komissiyasi va uning koordinatori, o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektor beradi. Universitetga kirish imtihonlari majburiy bo'lgan mamlakatlardan kelgan chet ellik talabalar uchun imtihondan o'tganligini tasdiqlovchi sertifikat ilova qilinishi kerak.

**Certificates considered equivalent to the admission test** (the following number refers to the grading equal to or higher than the threshold: 60/100)

**GRE** (General Test) with a minimum score of 153 in the "Verbal" section and 144 in "Quantitative" section and any score in the "Analytical Writing" section

**GMAT** with a minimum score of 500 in the two sections "Verbal" and "Quantitative", with any score in the "Analytical Writing" section.

**SAT** *SAT Reasoning test* (section "Evidence-Based Reading and Writing" and section "Math" with a minimum score of 500 points in each section) and *SAT Subject Test* (section "Physics Level 1 or 2" and section "Mathematics Level 1 or 2" with a minimum score of 500 points in each section). The two sections "Evidence-Based Reading and Writing" and "Math" of the SAT Test can be replaced by the ACT Test with a minimum score of 20.

## **INGLIZ TILI SERTIFIKATI**

TTPU ning birinchi bosqichiga qabul qilinish uchun abituriyentlar **IELTS 4.5** (akademik) balldan kam bo'lmagan sertifikatga ega bo'lishlari lozim.

TTPU ning ikkinchi bosqichida taxsil olish uchun **IELTS 5.5** (akademik) yoki undan yuqori bo'lgan sertifikat talab

qilinadi.

TTPU da IELTS sertifikat (akademik) o'rniga ekvivalent sifatida tan olinuvchi sertifikatlar ro'yxati:

<https://didattica.polito.it/cla/en/certificates>

## **TTPU DA TA'LIM OLISH UCHUN TO'LOV MIQDORI**

1-kurs barcha o'quv yo'nalishlari bo'yicha shartnoma to'lov miqdori **28 500 000 (yigirma sakkiz million besh yuz ming) so'mni** tashkil etadi..

## **QO'SHIMCHA MA'LUMOT UCHUN**

Qabul komissiyasining ish jarayoni uchun mas'ul shaxslar:

**Qabul komissiyasining raisi – Inoyatxodjayev J.Sh.**

**Qabul komissiyasining mas'ul kotibi – Abdullayev F.B.**

*Turin politexnika universiteti ma'muriyati ushbu ro'yxatdan tashqari shaxslarn-ing faoliyati uchun javobgar emas!*

Ariza topshirish jarayoni va boshqa savollarga qo'shimcha ma'lumot olish uchun, bevosita Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetiga quyidagi keltirilgan manzil bo'yicha murojaat qilishingiz mumkin:

***Kichik Halqa Yo'li ko'chasi 17, Toshkent, 100095, O'zbekiston (Mo'ljal: Talabalar shaharchasi, eski Nukus Kinoteatri, "Asia.uz" savdo markazi)***

***(105-xona).***

Elektron manzil: [admission@polito.uz](mailto:admission@polito.uz)

Telefon raqamlar: +99871 246-80-51, +99871 246-80-52